

**O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**
**O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

NAZAROVA KUMUSHOY SODIQJON QIZI

**TURLI STRETCHING MASHQLARI YORDAMIDA YOSH
GIMNASTIKACHILARDA EGILUVCHANLIKNI
RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Nazarova Kumushoy Sodiqjon qizi

Turli stretching mashqlari yordamida yosh gimnastikachilarda egiluvchanlikni rivojlantirish uslubiyati.....3

Назарова Кумушой Содикжон кизи

Методика развития гибкости у юных гимнасток с помощью различных упражнений стретчинга33

Nazarova Kumushoy Sodikjon kizi

Method of developing flexibility in young gymnasts with the help of various stretching exercises.....65

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....68

**O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**
**O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

NAZAROVA KUMUSHOY SODIQJON QIZI

**TURLI STRETCHING MASHQLARI YORDAMIDA YOSH
GIMNASTIKACHILARDA EGILUVCHANLIKNI
RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Ped1474 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.uzdjtsu.uz va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.zionet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kerimov Fikrat Azizovich

pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Korobeynikov George Valeryevich

biologiya fanlari doktori, professor

Astankulova Dilnur Furkat qizi

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil “___” “___” soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (0-370)- 717-17-19, 79, 717-27-27, faks.: (0-370)-717-17-76, Veb-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti E bino 309-xona).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot – resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19- uy). Tel.: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, faks.: (0-370) 717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatilgan.
(2025-yil “___” _____ dagi raqamli reyestr bayonnomasi).

R.M.Matkarimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

M.A.Ibragimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, p.f.b.f.d. (PhD), professor

A.N.Shopulatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi
p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Dunyo miqyosida badiiy gimnastika sport turi jadal rivojlanmoqda. Badiiy gimnastika jismoniy tarbiya va sport sohasida yuqori estetik va funksional talablarga javob beradigan murakkabi hisoblanmoqda. Ushbu sport turida sportchilardan texnik jihatdan mukammallik, yuqori darajadagi jismoniy tayorgarlik va ayniqsa, egiluvchanlik kabi muhim jismoniy sifatlarning rivojlangan bo‘lishini talab etmoqda. Ko‘plab mamlakatlarda gimnastikachilarni tayyorlash tizimiga yangi texnologiyalarni joriy etish maqsadida keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Yirik xalqaro musobaqalarda texnik mahoratni namoyish etishga zamonaviy talablar qo‘yilmoqda. Bugungi kunda xalqaro maydonda yuqori natijalarga erishish uchun yosh gimnastikachi qizlar deyarli o‘z organizmining imkoniyatlari chegarasida mashq qilishga majbur bo‘lmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, sportchi qizlarning texnikasini takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqishda va ularning harakat ko‘nikmalarini yuqori darajada amalga oshirishda yangi ijodiy yondashuvlar hamda samarali mashg‘ulot usullarini talab etmoqda.

Jahonda badiiy gimnastikaning zamonaviy rivojlanish bosqichida gimnastikachi qizlarni tayyorlashning nazariy va uslubiy asosiy masalalarini o‘rganish zarurati paydo bo‘lmoqda. Ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonining har bir bosqichida gimnastikachilarning maxsus tayyorgarligi samaradorligi harakat vazifalarini hal etishni ta‘minlovchi umumiy va maxsus vositalarni oqilona tanlash bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu vositalar ularning rag‘batlantiruvchi ta’sirini hisobga olgan holda kuch va egiluvchanlikni rivojlantirishga, shuningdek, nafaqat mushaklarning ishlash tartibi bo‘yicha, balki harakatning biomexanik xususiyatlarini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar bo‘yicha ham musobaqa elementlariga maksimal darajada mos kelishga qaratilmoqda. Shu sababli, kuch va egiluvchanlikni rivojlantirish uchun mashqlarni tanlash va qo‘llash gimnastika elementlarining xususiyatlarini hamda sportchi ayollarning individual morfofunksional xususiyatlarini inobatga olgan holda, harakatlarning tuzilishi va funksional biodinamikasini xolisona baholashni talab etmoqda.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, shuningdek, sportchilarning xalqaro maydonda munosib ishtirok etishini ta‘minlash bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Ilg‘or xalqaro tajribani hisobga olgan holda sportchilar tayyorlash metodologiyasini takomillashtirish, sportchilarni integral tayyorgarliklari va ularni rivojlantirishga aloxida e’tibor qaratish, sport turlari bo‘yicha terma jamoalar tarkibini sifatli to‘ldirish uchun sport zaxirasini shakllantirish va yuqori malakali sportchilarni tayyorlash jarayoniga innovatsion loyihalarni joriy etish”¹ kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Badiiy gimnastikada kuch tayyorgarligi uslubiyatini sezilarli darajada takomillashtirish zarur. Bu jarayon kuch va tezlik-kuch sifatlarini rivojlantirish uchun mashg‘ulot vaqtini optimallashtirishni, ixtisoslashtirilgan ishlarning umumiy hajmini oshirishni, shuningdek, gimnastikachilarni tayyorlashning yuqori samarali vosita va usullarini izlashni o‘z ichiga oladi. Gimnastika mashqlari talablariga moslashtirilgan maxsus

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924 sonli “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

tayyorgarlikning yuqori samara beruvchi vositalar hamda metodlarini izlab topishi, ishlab chiqishi hamda badiiy gimnastikachilar sport tayyorgarligi jarayoniga maxsus kuch va tezkor-kuch yo‘nalishdagi innavatsion majmuaviy – maqsadli vositalarni joriy etish ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng joriy etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-son, 2022-yil 23-dekabrdagi “Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-449-son qarorlari, 2022-yil 3-noyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-414-son qarorida va boshqa normativ-xuquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish uchun mazkur dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy-huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishga bog‘liq holda amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqotimizning nazariy asosini jismoniy tarbiya va sport nazariyasi hamda uslubiyati bo‘yicha mahalliy mutaxassislarining fundamental ishlari, shuningdek jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar tashkil etdi. Jumladan, M.N.Umarov, A.K.Eshtayev, G.M.Xasanova, K.D.Yarashev, S.V.Fedorova, S.A.Eshtayev, I.V.Ulezko² kabi ko‘plab mahalliy olimlar o‘zlarining ilmiy ishlari va dissertatsiyalarida gimnastikaning turli yo‘nalishlarida sportchilarning tayyorgarlik darajasini oshirish, shuningdek turli yosh guruhlarida jismoniy sifatlarni rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borganlar.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlarining jismoniy tarbiya va sport nazariyasi bo‘yicha yetakchi olimlar, jumladan L.P.Matveyev, V.N.Platonov, shuningdek, gimnastika nazariyasi va uslubiyati sohasidagi olimlar I.A. Viner-Usmanova, L.A.Karpenko, O.G.Rumba, Yu.K.Gaverdovskiy³ tomonidan tadqiqotlar

² Умаров М.Н, Эштаев А.К. Разработка модельных характеристик гимнастов высокой квалификации. // «Фан спортга». 2004. №1. - С.35-38.; Умаров М.Н., Хасанова Г.М. Взаимодействие педагогического фактора на формирование способностей в художественной гимнастике. // «Фан спортга». 2013. №1. –С. 32-35.; Ярашев К.Д., Умаров М.Н., Федорова С.В. Организация и проведение учебных занятий по художественной гимнастике в образовательных заведениях. Учебное пособие. Т.: 2017. - 403 с.; Эштаев С.А. Моделирование соревновательной деятельности гимнастов 13-15 лет на этапе углубленной специализированной подготовки. Дисс. доктора философии (PhD) по пед. наукам. Т.: 2018. -151 с.; Умаров М.Н. Технология организации и проведения учебных и тренировочных занятий по художественной гимнастике. Монография. Т.2019. -183 с.; Улезко И.В. Теория и методика художественной гимнастики: учебное пособие / Улезко И.В. – Ташкент: O‘zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2021. -108 с.

³ Гавердовский, Ю.К. Техника гимнастических упражнений: популярное учебное пособие / Ю.К. Гавердовский. – М.: Терра-Спорт, 2002. – 512 с.; Платонов В. Н. Периодизация спортивной тренировки. Общая теория и ее практическое применение / В.Н.Платонов. – К.: Олимп. лит., 2013. - 624 с.; Винер-Усманова И.А. Интегральная подготовка в художественной гимнастике. Автореф. дисс. ... д-ра пед. наук. Санкт-Петербург, 2013. -47 с.; Л. А. Карпенко, О. Г. Румба. Теория и методика физической подготовки в художественной и эстетической гимнастике: учеб. пособие для студентов вузов по направлению подгот. 034300.68 - Физ. культура/под общ. ред.: Л. А. Карпенко, О. Г. Румба. - М.: Сов. спорт, 2014. - 264 с.; Матвеев, Л.П. Общая теория спорта и ее

olib borilgan bo‘lib, ularning ishlari gimnastika va unda qo‘llaniladigan murakkab koordinatsion harakat turlarida egiluvchanlikni rivojlantirish muammosiga qaratilgan edi.

Xorijiy olimlar Lauren Skopal, Kevin Netto, Brad Aisbett, Amir Takla, Troy Castricum turli mashqlarning egiluvchanlik va kuch jismoniy sifatlariga ta’siri, Diulian Muniz Medeiros, Tamara Fenner Martini tomonidan turli stretching mashqlarining oyoq bilagi sohasidagi harakatlar doirasiga ta’siri, Dulian M Medeiros, Anelize Cini, Graciele Sbruzzi, Cláudia S Lima⁴, tomonidan sog‘lom yoshlarda statik stretchingning egiluvchanlikka ta’siri yuzasidan izlanishlar olib borishgan.

Biroq, shunday bo‘lsada, gimnastikachilarning turli yosh guruhlari uchun stretchingni qo‘llashning maqbul usullari va takrorlanish darajasi, shuningdek, turli xil stretching turlarining sportchilar egiluvchanligi va sog‘lig‘iga uzoq muddatli ta’siri yetarlicha o‘rganilmagan. Bu esa turli stretching texnikalarini qiyoslash, egiluvchanlikni oshirish uchun eng samarali yondashuvlarni aniqlash va ularning gimnastikachilarning umumiy jismoniy tayyorgarligiga ta’sirini baholashga qaratilgan tadqiqotlar uchun imkoniyat yaratadi. Shu sababli, ushbu tadqiqot ishi hozirgi kunga qadar o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliv ta’lim yoki ilmiytadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq V.22/1 “Turli malakaga ega sportchilarning funksional holati va jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 6-7 yoshli gimnastikachilarning egiluvchanlik sifatlarini stretching mashqlari yordamida rivojlantirish uslubiyatini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yosh badiiy gimnastikachilar fundamental tayyorgarlik bazasini maqsadli shakllantirish uchun mashg‘ulot jarayonini tabaqlashtirilgan o‘quv mudullarini ishlab chiqish;

yosh badiiy gimnastikachilar mashg‘ulot jarayonining tayyorgarlik va yakuniy qismlarida tayyorgarlik davriga muvofiqlashtirilgan stretching mashqlaridan foydalangan holda egiluvchanlikni rivojlantirishga qaratilgan metodikani ishlab chiqish;

yosh badiiy gimnastikachilarning yillik tayyorgarlik siklini innovatsion uslubda tashkil etish imkonini beruvchi “Stretching kids” mobil ilovasi ishlab chiqish;

прикладные аспекты: учебник / Л.П.Матвеев. – 6-е изд. – Москва: Спорт, 2019. – 340 с.: ил. – (Олимпийское образование). – ISBN 978-5-907225-00-8.

⁴ Lauren Skopal, Kevin Netto, Brad Aisbett, Amir Takla, Troy Castricum. The effect of a rhythmic gymnastics-based power-flexibility program on the lower limb flexibility and power of contemporary dancers. National Library of Medicine 2020 May;15(3):343-364.; Diulian Muniz Medeiros, Tamara Fenner Martini. Chronic effect of different types of stretching on ankle dorsiflexion range of motion: Systematic review and meta-analysis. 2018 Mar;34:28-35.doi: 10.1016/j.foot.2017.09.006. Epub 2017 Oct 27.; Dulian M Medeiros, Anelize Cini, Graciele Sbruzzi, Cláudia S Lima. Influence of static stretching on hamstring flexibility in healthy young adults: Systematic review and meta-analysis. 2016 Aug;32(6):438-445.doi: 10.1080/09593985.2016.1204401. Epub 2016 Jul 26.

yosh gimnastikachilarda egiluvchanlikni samarali rivojlantirish uchun stretching mashqlarining kunlik mashg‘ulot yuklamalari hajm-shiddatini inobatga olgan holda optimal davomiyligi va takrorlash intervallarini belgilab berish.

Tadqiqot obyekti sifatida badiiy gimnastika bilan shug‘ullanuvchi 6-7 yoshli gimnastikachilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini gimnastikachilarning egiluvchanligini rivojlantirishda qo‘llanilgan vosita va usullar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mahalliy va xorijiy ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, anketa va intervyu shaklida mutaxassislar bilan suhbat, pedagogik test, pedagogik tajriba-sinov hamda matematik- statistika kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

modullashtirilgan mashg‘ulot jarayonida har bir modulning funsional vazifasiga mos yuklama berilishi, elementlarni biomexanik tahlil asosida ketma-ket joylashtirish va ko‘nikma shakllanish bosqichiga mos differensial topshirqlarni qo‘llash orqali mashg‘ulotlar maqsadli tashkil etilib, texnik elementlarni yahlit uslubda o‘zlashtirish imkoniyatlari ilmiy asosda kengaytirilgan;

gimnastikachilarda egiluvchanlikni oshirish uchun mashg‘ulot jarayonida harakat amplitudasini izchil kengaytirishga qaratilgan statik–dinamik integrallashgan cho‘zilishlar, mushak antagonistik juftliklarini ketma-ket relaksatsiya-faollashtirish, hamda bosqichma-bosqich ortuvchi elastik qarshilik bilan bajariladigan cho‘zilish amallaridan foydalanish natijasida jismoniy tayyorgarlik imkoniyatlari kengaytirilgan;

yosh badiiy gimnastikachilarning yillik tayyorgarlik siklini samarali tashkil etish uchun mashg‘ulotdan tashqari tayyorgarlik jarayonini kunlik cho‘zilish hajmi, harakat amplitudasi dinamikasi, mashq bajarilish sifati va tiklanish ko‘rsatkichlarini raqamli monitoring qilish imkonini beruvchi “Stretching kids” mobil ilovasini tayyorgarlik tizimiga joriy etish natijasida yuklamalarni individual optimallashtirish imkoniyatlari oshirilgan;

yosh badiiy gimnastikachilarda harakatlarning ritmik ifodasini rivojlantirish uchun yil davomida egiluvchanlikni bosqichma-bosqich oshirishga yo‘naltirilgan mashqlarning davomiyligi va takrorlanish tartibini moslashuv davri (10–15 soniya), funksional kuchayish davri (20–30 soniya), yuqori amplituda davri (30–45 soniya) kabi progressiv intervallar asosida, shuningdek haftalik takrorlanish sikllarini 2-3-4 marotabagacha bosqichma-bosqich oshirish tizimi asosida maqsadli belgilash natijasida ritmik tayyorgarlik ko‘rsatkichlari yaxshilangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

gimnastikachi qizlarning egiluvchanligini oshirishga qaratilgan stretching mashqlari majmuasi ishlab chiqilgan;

gimnastikachilarning yosh va tayyorgarlik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning mashg‘ulot jarayoniga stretching mashqlarini kiritish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

stretching mashqlarini mustaqil o‘rganish imkonini beruvchi mobil ilova yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingen natijalarini ishonchliligi nazariy metodologik baza, ilmiy tadqiqot apparatinig tadqiqot maqsadi, obyekti, predmeti va vazifalariga mosligi, zamonaviy metodlardan to‘g‘ri foydalanilganligi, tasdiqllovchi va shakllantiruvchi natijalarning maqsadli amalga oshirilganligi, ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar, matematik-statistika metodlaridan to‘g‘ri foydalanganlik ko‘rsatkichlari, olingen natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, o‘tkazilgan pedagogik tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan mashqlar majmualari va yosh gimnastikachilarning egiluvchanligini rivojlantirish metodikasi gimnastikachilarning mashg‘ulot jarayonlarida foydalanishga asos bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, gimnastikachilarning egiluvchanligini oshirish uchun stretchingdan foydalanish bo‘yicha metodika va tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi. Uslub va tavsiyalar murabbiylar va sport mutaxassislari tomonidan mashg‘ulot jarayonini optimallashtirish va gimnastikachilarning tayyorgarlik samaradorligini oshirishda qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yosh badiiy gimnastikachi qizlarda egiluvchanlikni stretching mashqlari yordamida rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot va pedagogik tajriba natijalari hamda ularning qiyosiy tahlili asosida:

modullashtirilgan mashg‘ulot jarayonida har bir modulning funsional vazifasiga mos yuklama berilishi, elementlarni biomexanik tahlil asosida ketma-ket joylashtirish va ko‘nikma shakllanish bosqichiga mos differential topshiriqlarni qo‘llash bo‘yicha taklif va tavsiyalar Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi sport maktabi mashg‘ulotlariga tatbiq etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 08-yanvardagi 02-16/164-son ma’lumotnomasi). Natijada, yosh gimnastikachilarning egiluvchanligi 12,4 foizga yaxshilandi, bu esa kasallik va jarohatlar natijasida yo‘qolgan normal moslashuvchanlikni tiklashga erishilgan;

gimnastikachilarda egiluvchanlikni oshirish uchun mashg‘ulot jarayonida harakat amplitudasini izchil kengaytirishga qaratilgan statik–dinamik integrallashgan cho‘zilishlar, mushak antagonistik juftliklarini ketma-ket relaksatsiya-faollashtirish, hamda bosqichma-bosqich ortuvchi elastik qarshilik bilan bajariladigan cho‘zilish amallaridan foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar Toshkent viloyatining Chirchiq shahridagi sport maktabida shug‘ullanuvchi yosh gimnastikachilarning mashg‘ulot jarayoniga tatbiq etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 8-yanvardagi 02-16/164-son ma’lumotnomasi). Natijada, maxsus mashqlarni joriy etish natijasida yosh gimnastikachilarning egiluvchanligi 12,6 foizga oshgan;

yosh badiiy gimnastikachilarning yillik tayyorgarlik siklini samarali tashkil etish uchun mashg‘ulotdan tashqari tayyorgarlik jarayonini kunlik cho‘zilish hajmi, harakat amplitudasi dinamikasi, mashq bajarilish sifati va tiklanish ko‘rsatkichlarini raqamli monitoring qilish imkonini beruvchi “Stretching kids” mobil ilovasini tayyorgarlik tizimiga joriy etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahri sport maktabi gimnastikachi qizlarining mashg‘ulot jarayoniga tatbiq etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 8-yanvardagi 02-16/164-son ma’lumotnomasi). Natijada, egiluvchanlik sifati 11,8 % ga yaxshilangan;

yosh badiiy gimnastikachilarda harakatlarning ritmik ifodasini rivojlantirish uchun yil davomida egiluvchanlikni bosqichma-bosqich oshirishga yo‘naltirilgan mashqlarning davomiyligi va takrorlanish tartibini moslashuv davri (10–15 soniya), funksional kuchayish davri (20–30 soniya), yuqori amplituda davri (30–45 soniya) kabi progressiv intervallar asosida, shuningdek haftalik takrorlanish sikllarini 2-3-4 marotabagacha bosqichma-bosqich oshirish tizimi bo‘yicha taklif va tavsiyalar Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi yosh badiiy gimnastikachilarning mashg‘ulot jarayonida qo‘llanildi (O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 08-yanvardagi 02-16/164-son ma’lumotnomasi). Natijada, egiluvchanlikni samarali rivojlanishi hisobiga samaradorlik 10,9% ga oshgan.

Tadqiqot natijalarinig aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 7 ta ilmiy-uslubiy ish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bob iborat bo‘lib, 123 sahifali matn, 22 ta rasm, 6 ta jadval, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzusining dolzarbliji va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarini ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini joriy qilinishi, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi asoslangan, ishning tuzilishi yuzasidan ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yosh gimnastikachi qizlarda egiluvchanlikni rivojlantirish muammosining ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi darajasi koordinatsion qobiliyatlarni rivojlanish nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy tavsiflanadi. Shuningdek, yosh gimnastikachilarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi o‘rganiladi hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda jismoniy qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlanish asoslari, rivojlanish vositalari va usullari, individual va tabaqa lashtirilgan yondashuv asosidagi mashg‘ulotlar ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. O‘quv jarayonini samarali rejalaشتirish uchun pedagogik modulning yangi texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari ham keltirilgan.

Turli yoshdagi o‘quvchilarning jismoniy tarbiya jarayonining asosiy bosqichlari va yo‘nalishlarini aniqlash, jismoniy tayyorgarlik, funksional holat, harakat faolligi, muvozanat funksiyalari va koordinatsion ko‘nikmalarni rivojlanishning tegishli vosita va usullarini tanlash, yosh, jins va individual xususiyatlarga qarab jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida yuklama hajmi va shiddatini tartibga solish, jismoniy

tarbiyada pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda yuqlama shiddati va hajmini baholay olish, hamda organizmning reaksiyasiga qarab tartibga solish bo'yicha N.A.Bernshteyn, L.P.Matveyev, A.T.Sodiqov, B.G.Baybabayev, Ya.S.Veynbaum, S.R.Salomov, N.G.Ozolin, V.P.Filin, Yu.V.Verxoshanskiy, V.M.Zatsiorskiy, M.Ya.Gujalovskiy va V.I.Lyax kabi olimlar tomonidan maqsadli tadqiqotlar olib borilgan.

Muvozanat saqlash funksiyasining fiziologik asoslarini (tamoyillarini) tizimlashtirish, maxsus mashqlar yordamida muvozanatni saqlovchi analizatorlarni mashq qildirishga yo'naltirilgan vestibulyar apparatning faol usullarini qo'llash va ko'rish analizatorini rivojlantirishning muhim jihatni bilan koordinatsion mashqlarni samarali o'zlashtirish masalalari bo'yicha [I.M.Sechenov, P.F.Lestgaft, O.V.Demidovich, Yu.F.Kuramshin], maxsus jismoniy mashqlarda inson harakatlarini tartibga solish imkoniyati bilan muvozanatni saqlash (turg'un holat) funksiyasini rivojlantirish nazariyasining fiziologik asoslari ishlab chiqilgan bo'lib, ular ilmiy asosga ega (D.D.Safarova, R.M.Gorodnichev, V.P.Guba).

Inson tanasining atrof-muhitdagi holati va harakatlarini aniq tahlil qilish, markaziy asab tizimining doimiy nazorati, teri, mushaklar, bo'g'imlar va paylarning eshitish retseptorlarining muvofiq o'zaro bog'liqligi, ko'rish nazoratining chekshanishi yoki jismoniy mashqlarda muvozanat barqarorligiga erishish jarayonining to'liq qisqarishi, hamda harakatlarning vaqtinchalik va chegaraviy tuzilishidagi o'zgarishlarni aniqlash muammolari bo'yicha (F.A.Kerimov, S.R.Salomov, T.S.Usmanxo'jayev, R.D.Xalmuxamedov, Z.G.G'apporov, O.V.Goncharova, M.X.Mirjamolov va J.M.Ishtayev)ning ishlariga urg'u berilgan va ularning samarali qo'llanilishi koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning asosini tashkil etishi isbotlangan. Mamlakatimiz olimlari va mutaxassislari (A.N.Abdiyev, M.N.Umarov, A.K.Eshtayev, D.X.Umarov, D.N.Eshtayeva) yosh sportchilar natijalarining barqaror o'sishini ta'minlash, ularning jismoniy sifatlarini yoshga mos ravishda rivojlantirish va jismoniy tayyorgarligini oshirish muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, gimnastikachilarining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik yondashuvlar asosida tayyorgarlik jarayonida egiluvchanligini rivojlantirishning tegishli vosita va usullarini ishlab chiqish badiiy gimnastika nazariyasi va metodikasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun biz ilgari surayotgan gimnastikachilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda egiluvchanligini rivojlantirish muammosi ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya ishining "**Tadqiqotning uslublari va tashkil qilinishi**" nomli ikkinchi bobida tadqiqot usullari, pedagogik tajribani tashkil etish va o'tkazishning xususiyatlari, tadqiqotni uch bosqichining har biri bo'yicha olib borilgan ishning tuzilishi va tadqiqotlar 2020-2023 yillar davomida uch bosqichda o'tkazilganligi bayon etilgan.

Tadqiqot yosh badiiy gimnastikachilarining egiluvchanligini rivojlantirish uchun stretching mashqlarining samaradorligini o'rganishga qaratilgan.

Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha tadqiqot jarayoni to'rt bosqichda amalgalashirildi. Tajriba-sinovda 72 nafar 6-7 yoshdagi gimnastikachi qizlar, ya'ni badiiy

gimnastika bo'yicha Toshkent shahridagi (Chilonzor tumanidagi sport maktabi) va Chirchiq shahridagi (Toshkent viloyati Chirchiq shahridagi sport maktabi) ikkita sport maktabi o'quvchilari ishtirok etdi.

Birinchi bosqichda (2022-yil yanvar - dekabr) quyidagilar amalga oshirildi:

- adabiy manbalarni tahlil qilish va umumlashtirish;
- metodlar tanlanib, sinovdan o'tkazildi;
- ishning vazifalari aniqlashtirilib, pedagogik kuzatuvarlar o'tkazildi;
- asosiy tajribani o'tkazish uchun zarur ma'lumotlar to'plandi;
- yuqori malakali mutaxassislar bilan so'rovnoma shaklida suhbat o'tkazildi.

Ikkinci bosqichda (2023-yil yanvardan 2023-yil aprelgacha) yosh gimnastikachi qizlarda egiluvchanlikni rivojlantirish, sport-pedagogik sinovlar va ekspert baholashga qaratilgan uslubiyat ishlab chiqildi. Ushbu ma'lumotlar asosida pedagogik tajribani o'tkazish uchun ikkita bir xil - nazorat va tajriba guruhlari tashkil etildi. Shu bilan bir vaqtda, taklif etilayotgan jismoniy yuklama oqibatlarini aniqlash maqsadida ishtirokchilarning tibbiy-biologik tekshiruvlari o'tkazildi.


Uchinchi bosqichda (2023-yil may - 2024-yil yanvar) Toshkent va Chirchiq shaharlarida egiluvchanlikni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan uslubning samaradorligini aniqlash maqsadida asosiy pedagogik tajriba o'tkazildi. Taklif etilgan mashqlarning natijadorligi baholandi.

To'rtinchi bosqichda pedagogik tajriba yakunida olingen natijalarning ekspert baholarini yakuniy tahlil qilish, to'plangan ma'lumotlarga statistik ishlov berish, o'tkazilgan tadqiqot bo'yicha xulosalarni shakllantirish, natijalarni yozish va yakuniy tarzda rasmiylashtirish amalga oshirildi.

Dissertatsiyaning **"Yosh badiiy gimnastikachilarda egiluvchanlikni rivojlantirish uchun stretching mashqlarini qo'llash uslubiyati"** nomli uchinchi bobida boshlang'ich sinf o'quvchilarida egiluvchanlikni rivojlantirish uchun mashg'ulotlar davomida modulli texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining egiluvchanlik darajasini oshirishda stretching texnologiyasini qo'llash uslubiyati, undan foydalanishni dasturiy-uslubiy rejalashtirish mexanizmi hamda yosh gimnastikachi qizlarning jismoniy sifatlarini takomillashtirishga qaratilgan jismoniy yuklamalarni pedagogik nazorat qilish va boshqarish natijalari bayon etilgan.

Shunday qilib, 6-7 yoshli gimnastikachilarning egiluvchanlik mashqlari asosan statik, dinamik va passiv usullariga asoslanadi, chunki bular ushbu yosh davri uchun eng xavfsiz va samarali hisoblanadi. Qolgan usullar esa kamroq qo'llaniladi (2-rasmga qarang).

Pedagogik kuzatuv va mutaxassislar bilan og'zaki so'rovnoma o'tkazish natijasida, 6-7 yoshli gimnastikachi qizlarning mashg'ulot jarayonida barcha turdag'i stretching usullari faol qo'llanilmayotgani aniqlangan. Eng ko'p qo'llaniladigan usul statik stretching bo'lib, u 50 foizni tashkil etadi. Dinamik stretching 25 foizni, passiv stretching 15 foizni tashkil etadi. Faol stretchingdan foydalanish 5 foizni tashkil etadi, PNF, izometrik, va ballistik stretchingdan foydalanish esa minimal, mos ravishda 3, 2 hamda 1 foizni tashkil etadi.



1-rasm. 6-7 yoshli gimnastikachi qizlarning mashg‘ulot jarayonida stretchingning 7 turini qo‘llash

Bu o‘z navbatida gimnastikachi qizlarning yoshi va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda, egiluvchanlikni asta-sekin va xavfsiz rivojlantirishni ta‘minlaydigan mashg‘ulot usuliga ustuvorlik berilayotganini ko‘rsatadi.




2-rasm. Stretching mashqlari bilan shag‘ullanish jarayonida jismoniy yuklamaga ta’sir qiluvchi asosiy omillar

Shuningdek, taklif etilgan uslubiyat harakat amplitudasini yaxshilash, paylar va mushaklarni mustahkamlash, hamda to‘g‘ri harakat ko‘nikmalarini shakllantirish uchun mashqlarni o‘z ichiga oladi. Bu uslub nafaqat sport maqsadlariga erishishga, balki yosh badiiy gimnastikachi qizlarning kelgusidagi jismoniy rivojlanishi uchun asos yaratishga qaratilgan.

Gimnastikaning hozirgi holati, barcha mavjud bo‘lgan texnikalarni hisobga olgan holda qo‘sishma vositalardan foydalangan holda, sakrash texnikasini takomillashtirish harakatlarga o‘rgatishda har bir usulining o‘ziga xos xususiyatlarini Tadqiqotning birinchi bosqichida biz tajriba guruhi ishtirokchilarining jismoniy tayyorgarligini aniqlash uchun test sinovlari o‘tkazildi.

Ixtisoslashtirilgan sport maktabida shug‘illanuvchi gimnastika ixtisosligidagi badiiy gimnastikachilarning egiluvchanlik jismoniy sifatini rivojlantirib borish har bir murabbiyning eng asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Biz tomonimizdan boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi gimnastikachilarni tayyorlash modullari ishlab chiqildi. Ushbu modullarning maqsadi gimnastika sport turning badiiy gimnastika turiga qiziqishini oshirish, va irodaviy sifatlarini tarbiyalashdan iborat.



3-rasm. Yosh gimnastikachilarda egiluvchanlikni rivojlantirishning tabaqlashtirligan mashg'ulot modullari

1-jadval

6–7 yoshli badiiy gymnastikachilarining yillik tayyorgarlik davrida stretching mashqlari orqali egiluvchanlikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar majmuasi

TAYYORGARLIK DAVRI								
Tayyor-garlik turlari	1-hafta	Mashq-lar me'yori	2- hafta	Mashq-lar me'yori	3- hafta	Mashq-lar me'yori	4- hafta	Mashq-lar me'yori
UJT	1. Dinamik cho'zilish: oyoqlarni oldinga, orqaga, yon tomonlarga siltash. 2. Oldinga egilishlar: oyoqlar to'g'ri holatda o'tirish (qo'llar bilan oyoq uchlariga tegishga harakat qilish).	5' 3'	1. Belni bukish — qorin bilan yotgan holatda, oyoqlarni polda ushlab turib, tananing yuqori qismini ko'tarish. 2. Ko'prikcha — chalqancha yotgan holatdan oyoq va qo'llarga tayanib, gavdani yuqoriga ko'tarish.	2' 3'	1. "Mushuk" mashqi — to'rt oyoqlab turgan holatda belni navbatmanavbat bukish va cho'zish. 2. Yotgan holda tosni ko'tarish — chalqancha yotib, bukilgan oyoqlar bilan tosni ko'tarib-tushirish.	3' 2'	1. Qo'l, bosh, tos va oyoqlar bilan aylanma harakatlar — oldinga, orqaga, o'ng va chap tomonga. 2. Bosh ustida qarsak chalgan holda joyida sakrash.	2' 1'
MJT	1. Tayanchli shpagat — oyoqlar holatini nazorat qilish uchun bloklar yoki yumshoq sirdan foydalanish. 2. Tik turgan holatda orqaga egilish — tizzalarda turib, orqaga egilib qo'llarni tovonlarga tekkizish.	5' 2'	1. Oyoqlarni "qurbaqa" holatida ochish — qorin bilan yotgan holda, tos-son bo'g'imlarini ochish maqsadida oyoqlarni ikki tomonga yoyish. 2. Tayoq bilan egilishlar — oldinga egilganda belni tik tutish uchun tayoqdan foydalanish.	2' 2'	1. Chalqancha yotgan holatda, oyoqlarni to'g'ri tutgan holda yuqoriga ko'tarish. 2. "Qaldirg'och" holatini statik ushslash — bir oyoqda turib, ikkinchi oyoqni orqaga ko'tarib, qo'llarni oldinga cho'zgan holda muvozanatni saqlash.	3' 2'	1. Fitbolga tayanib, ko'prikcha hosil qilish. 2. Rezina yordamida yelkalarini va oyoq panjasini cho'zish — o'tirgan holda oyoq panjasini ushlab rezinani oyoq panjasiga ilib, sekin o'ziga tortish.	2' 3'

1-jadval davomi

MTT	<p>1. Gavdaning to‘g‘ri holatiga e‘tibor qaratilgan shpagat — qomatni oyna orqali nazorat qilish.</p> <p>2. Qo‘1 va oyoqlarni to‘g‘rilagan holda bajariladigan ko‘prikcha — belni to‘g‘ri bukish uchun.</p>	<p>5'</p> <p>3'</p>	<p>1. Shpagat holatida “arg‘imchoq” — tos-son bo‘g‘imlarining harakatchanligini oshirish uchun oldinga va orqaga ravon harakatlar bajarish.</p> <p>2. Soddalashtirilgan rondad — aylanish jarayonida tananing to‘g‘ri holatini saqlash ustida ishlash.</p>	<p>5'</p> <p>5'</p>	<p>1. Tana bilan to‘lqinlanish — tik turgan holatdan egilib, orqaga qaytish; harakatlar tekis va siltanishsiz bajariladi.</p> <p>2. Oyoqni oldinga ko‘tarib sakrash — sakrash paytida bir oyoqni imkon qadar yuqoriga ko‘tarishga intilish.</p>	<p>3'</p> <p>3'</p>	<p>1. Qo‘llarda tik turishdan ko‘prikka o‘tish — o‘tish harakatlarini ravon bajarishni mashq qilish, murabbiy nazorati ostida.</p> <p>2. Buyumlar bilan bir oyoqda muvozanat saqlash — halqa yoki to‘pni turli holatlarda ushlab turish orqali muvozanatni rivojlantirish.</p>	<p>5'</p> <p>7'</p>
TT	<p>1. Nafasni boshqarish bilan shpagat — cho‘zilish jarayonida harakatni nazorat qilish uchun nafas olishni tartibga solish qobiliyati.</p> <p>2. Bir oyoqda burilishlar bilan muvozanat saqlash — vaqt va fazoni his qilishni, oyoq va to‘piqlarning egiluvchanligini rivojlantiradi.</p>	<p>7'</p> <p>5'</p>	<p>1. “Ko‘prikcha” o‘tishlarni ravon bajarish: elementlar orasidagi o‘tishlarning ohistaligini mashq qilish, harakatdagi barqarorlikka urg‘u berish.</p> <p>2. Egilishlar bilan muvozanatga ravon o‘tish: egilishdan bir oyoqda turish yoki shpagatga o‘tish kabi o‘tishlarni ravon bajarish ustida ishlash.</p>	<p>3'</p> <p>5'</p>	<p>1. Pozada cho‘zilish: murakkab pozalarda turish orqali harakatlarning ifodadorligini rivojlantirish.</p> <p>2. Buyumlardan sakrash: to‘g‘ri chiqish bilan belgilangan taktika pozitsiyasiga sakrash.</p>	<p>5'</p> <p>7'</p>	<p>1. Egilish va bukilishlardan iborat mashq birikmalarini tuzish: ikki yoki uch elementni ketma-ket bajarish.</p> <p>2. Musiqa sadolari ostida egilishlar va shpagatlarni amalga oshirish.</p>	<p>5'</p> <p>3'</p>

Mudulning vazifalari yosh gimnastikachilarni jismoniy rivojlanishini yaxshilash, ularning salomatligini mustahkamlash, gimnastika harakatlar texnikasini egallah hamda jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish kabu vazifalarni hal etishga qartilgan. 1-jadvalda ko'rsatilgan stretching mashqlari gimnastikachi qizlar uchun yil davomida moslashtirilgan statik va dinamik mashqlar kompleksi, UJT, MJT, MTT hamda TT bosqichlarini hisobga olgan holda, shuningdek, miqdori va haftalarga bo'lingan jadval, tayyorgarlik jarayonida tuzilgan yondashuvni ta'minlaydi. Bu yondashuv yuklamalarni bosqichma-bosqich moslashtirish imkonini beradi, bu esa gimnastikachilarning jismoniy sifatlarini, shu jumladan egiluvchanligini optimallashtirishga yordam beradi.

Mashqlar majmuasini ishlab chiqishda muhim jihat 6-7 yoshdagi bolalarining fiziologik va psixo-emotsional xususiyatlarini hisobga oladigan muvozanatli yondashuvni yaratishdir. Bu yosh intensiv o'sish va rivojlanish davri va ayni paytda haddan tashqari yuklanish va shikastlanishga moyilliги yuqori bo'lgan yosh guruhidir. Shuning uchun, cho'zish yordamida mashg'ulotlarni rejalashtirish o'ylangan bo'lishi kerak va moslashuvchanlikni rag'batlantirish uchun asta-sekin murakkablikni oshirishi kerak, lekin bo'g'inlar va ligamentlarni ortiqcha yuklamaslik kerak.

1-jadvalagi mashqlar majmuasi mashg'ulotlarda yuklama va xilma-xillikni bosqichma-bosqich oshirish tamoyiliga asoslangan, bu egiluvchanlikni uyg'un rivojlanishiga yordam beradi. Mashqlar gimnastikachilarning yosh xususiyatlarini va jismoniy tayyorgarligi darajasini hisobga olgan holda tuzilgan.

Shuningdek, 3.1-jadval. o'quv jarayonining strukturasi tayyorgarlik turi (umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik) va yukning haftalik dozasini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich qurilganligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv 6-7 yoshli gimnastikachilarda moslashuvchanlikni tizimli ravishda rivojlanishini ta'minlaydi, ortiqcha yuklarning oldini oladi va tananing ortib borayotgan talablarga asta-sekin moslashishiga yordam beradi.

Davrlarga bo'linish mashg'ulot davri davomida yukni samarali taqsimlash imkonini beradi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT) blokida asosiy e'tibor mushak-ligamentli apparatni mustahkamlash va qo'shma harakatchanlikni oshirishga qaratilgan. Maxsus jismoniy tayyorgarlikda (MJT) asosiy e'tibor badiiy gimnastikaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashuvchanlikni rivojlantirishga qaratiladi. Ixtisoslashtirilgan texnik-taktik tayyorgarlik (MTT va TT) doirasida mashqlar gimnastikachilarni raqobatbardosh elementlarni bajarishga moslashtirishga qaratilgan.

Haftalik yuklanish dozasi progressivlik tamoyilini ko'rsatadi: mashqlar intensivligining bosqichma-bosqich oshishi ortiqcha kuchlanish xavfisiz moslashuvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu mashqlarni muntazam bajarish nafaqat egiluvchanlikni oshirishga, balki to'g'ri holat va harakat muvozanatini shakllantirishga ham yordam beradi.

2-jadval

6-7 yoshli qizlar uchun stretching mashqlarini qo'llash metodikasi

Bo'g'imlar	Mashqlarning nomi	Takrorlashlar soni	Tashqi yuklama	Dam olish intervallari kattaligi	Bajarish shiddati	Irodaviy sa'y-harakatlar	Bo'g'imlardagi harakatlar amplitudasi
<i>Statik stretching</i>							
